

TALABALARNI INNOVATSION FIKRLASH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Xolikova Dilobar Maxsitovna

*FarDU, Sirtqi bo'lim, Ijtimoiy-gumanitar
fanlar kafedrasi dotsenti, p.f.b.f.d (PhD)*

Annotatsiya: Maqolada to'rtta dialektik o'zaro bog'liq bosqichdan iborat "innovatsion fikrlash" tushunchasi va zamonaviy o'qituvchining innovatsion tafakkurini shakllantirish mexanizmi keltirilgan. O'qituvchida innovatsion fikrlash qobiliyati ta'lim, kasbiy, ijtimoiy tajribani shakllantirish, shuningdek, o'z-o'zini tarbiyalash va o'zini rivojlantirish asosida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: o'qituvchining innovatsion tafakkuri, innovatsion fikrlashni rivojlantirish, innovatsion fikrlashni shakllantirish mexanizmlari, innovatsion fikrlashning tarkibiy qismlari.

Jahonda innovatsion fikrlash va faoliyat yuritish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan ta'lim tizimini yaratish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bugun oliv ta'lim sifatini oshirishda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning "XXI asrda oliv ta'lim" butun jahon deklaratsiyasi, YUNESKOning ta'lim dasturlari, Yevropada yaxlit oliv ta'lim tizimini yaratish maqsadida qabul qilingan Balonya deklaratsiyasi muhim o'rin egallaydi. Ta'lim, fan va madaniyat muammolari bo'yicha BMT (YUNESKO)ning 1998-yildagi "YUNESKO: 2020-yil ufqlari" nomli istiqbolli ma'rurasida oliv ta'lim tizimi qiyofasiga, o'qituvchilar tayyorlash madaniyati va siyosatiga, ayniqsa, talabalarning yangicha fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish asosida innovatsion faoliyatga tayyorlashning yangi strategiyasiga alohida e'tibor qaratilgan. Bu bevosita kadrlar tayyorlash sifatini, raqobatbardoshligini oshirishga zamin yaratadi.

Dunyoning rivojlangan oliv ta'lim tizimida mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash yo'naliishlaridan biri sifatida bo'lajak pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlash, ularning innovatsion fikrlash ko'nikmasini, individual ijodiy faoliyatini birmuncha to'laroq namoyish qilish, intellektual salohiyatini rivojlantirish, o'qish jarayonida egallagan bilim, ko'nikma va malakalar zahirasini innovatsion masalalar yechimiga qaratish muammolari alohida o'rin egallaydi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish oliv pedagogik ta'lim tizimini qayta qurishni, maqsad va vazifalarini aniqlashtirishni, bo'lg'usi o'qituvchilarni tayyorlash mazmunini oliv ta'lim muassasalari innovatsion tizimining yangi talablariga muvofiq ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasida ham ta’lim tizimiga innovatsiyalarni joriy qilish, yangicha fikrlovchi, innovatsiyani olib kelishga qodir kadrlarni tayyorlash masalalari ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, unga innovatsion va zamonaviy usullarini joriy etish uchun “yangi davr o‘qituvchilarini tarbiyalash, pedagogika fanini rivojlantirish, innovatsion ta’lim texnologiyalari, kreativ yondashuvlar”¹ni yaratish zarurligini alohida ta’kidlaydi. Bugungi kunda davlat ijtimoiy buyurtmasi pedagogik oliy ta’lim muassasalari o‘quv-tarbiya jarayoniga o‘qitishning natijaviyligini ta’minlovchi pedagogik innovatika g‘oyalarini joriy qilish bilan bo‘lg‘usi o‘qituvchilarning pedagogik innovatsion faoliyatdek kasbiy taqozolangan funktsiyasini bajarishning amaldagi tayyorgarlik darajasi o‘rtasida ma’lum ziddiyatlarlarning mavjudligi bajarish zaruratini vujudga keltiradi.

Innovatsion yondashuvning ba’zi muammolari mamlakatimiz pedagog olimlaridan A.Abduqodirov, N.Azizzoxjayeva, Z.Asimova, G.Aldjanova, U.Begimqulov, G.Boymurodova, R.Djurayev, B.Djalalov, Sh.Mardonov, U.Inoyatov, J.Yo‘ldoshev, N.Muslimov, O.Musurmanova, R.Mavlonova, M.Mirsoliyeva, M.Ochilov, B.Raximov, A.Raximov, N.Sayidahmedov, E.Seytxalilov, Sh.Shodmonova, N.Egamberdiyeva, A.Xalikov, F.Yuzlikayev, D.Yunusovalarning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Hozirgi vaqtida innovatsion jarayonlarning tarixiy-pedagogik, nazariy-metodologik jihatlari Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) davlatining pedagog olimlari, jumladan, Y.Artamonova, V.Boyko, N.Vasilev, M.Vayndorf-Sisoeva, L.Grebenkina, L.Illarionova, I.Isayev, B.Lazarev, B.Martirosyan, I.Maltseva, V.Moiseyev, S.Novikov, V.Nechayev, L.Podimova, V.Slastenin, Y.Silyayeva, V.Xutorskiy, Y.SHitanov kabi olimlarning ishlarida u yoki bu darajada yoritilgan. Pedagogik innovatikaning ta’lim tizimida yangiliklar joriy qilish nazariyasi va amaliyoti sifatida yuzaga kelishi va rivojlanishi masalalari rossiyalik professor N.Yusufbekova tomonidan yuqori ilmiy-metodik darajada tadqiq qilingan. Uning benazir xizmati shundaki, u birinchi bo‘lib pedagogik innovatikani mustaqil fan sifatida o‘z predmetiga ega ekanligini ilmiy asosladi.

Xorijiy tadqiqotlar tajribasida ta’limda innovatsiyalar, innovatsion fikrash, innovatsion tafakkur, innovatsion faoliyat, o‘qitish texnologiyalarini loyihalash muammolari Anjela Stof (Angela Stoof), Benjamin Blum (Benjamin Bloom), Brayan R. Kol (Bryan R.Cole), Drapeau Patti (Drapeau Patti), Djon Raven (Jon Raven), Jaslin S. Golberg (Jasquelle S.Golberg), Merriembar Jeron (Merrienboer Jeroen), Shubra Mangal (Shubhra Mangal), Rinu Moxan (Reenu Mohan), Layl Spenser (Lyle Spencer) va boshqalar kabi olimlarning ilmiy ishlarida o‘z ifodasini topgan.

¹Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari. –Toshkent.: O‘zbekiston. 2020. –B. 143.

Biroq, alohida ta'kidlash joizki, yuqorida qayd etilgan tadqiqot ishlarida talabalarning innovatsion fikrlash ko'nikmasini takomillashtirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat o'quv-tarbiya jarayonini tezlashtirishning yagona didaktik tizimiga aylantirilmagan.

"Innovatsiya" tushunchasi lotin tilidan olingan bo'lib (inglizchaga, novus-yangi), "yangilanish", "o'zlashtirish", "qandaydir yangilikni kiritish", "yangicha yondashish yoki yangini joriy etish", "yangilik kiritish" ma'nolarini anglatadi. O'z navbatida "yangi" so'zi ushbu tushunchaning asosiy yadrosini tashkil etadi. Odatda, yangilanish tushunchasi ta'limda ko'p hollarda o'zgartirish tushunchasi bilan sinonimdir. Agar ushbu o'zgartirish keng qamrovli bo'lsa va butun ta'lim tizimini o'zgartirsa, unda "islohot" tushunchasi bilan izohlanadi. Lekin barcha o'zgarishlarni yangilik deb qarash to'g'ri bo'lmaydi. Chunki yangilik o'zida avval boshidanoq qo'yilgan vazifalarning yangilanishini maqsad qilib qo'yadi.

Pedagogik yangiliklarning uch ko'rinishi ajratib ko'rsatiladi:

1) yangilik deb butunlay yangi va ilgari ma'lum bo'lman ta'lim, g'oyalar va harakatlarni aytishimiz mumkin. Bunday tamomila yangi va o'ziga xos yangiliklar juda kam;

2) eng ko'p uchraydigan yangiliklarga moslashtirilgan, kengaytirilgan yoki qayta shakllantirilgan g'oya va harakatlar kiradi, ular ma'lum muhitda va ma'lum vaqt oralig'ida o'ziga xos dolzarblikka ega bo'ladi;

3) pedagogik yangiliklar o'zgargan sharoitlarda maqsadlarni qaytadan qo'yish bilan bog'liq ravishda ilgari mavjud bo'lgan harakatlarning qaytadan yuzaga chiqishi tufayli vujudga keladi, zero yangi shart-sharoitlar ma'lum bir ijobiy g'oyalarning muvaffaqiyatini kafolatlaydi.

Ta'lim tizimidagi innovatsion jarayonning o'ziga xos xususiyati shundaki, u joriy qilinishini amalga oshirilayotgan innovatsion ijtimoiy-pedagogik muhitga, hech shubhasiz, tuzilmaviy o'zgartirishlar kiritadi.

Bizning fikrimizcha, «Innovatsiya» va «Innovatsion jarayon» kabi tushunchalar Oliy ta'lim muassasalari talabalarida ilmiy tasavvurlar, ilg'or qarash va g'oyalar, akademik ilm mantig'i bo'yicha yuz beradigan jarayonning modifikatsiyalari qo'llab-quvvatlanishi natijasida rivojlanadigan tafakkur maxsuli va amaliyot mulohazasi natijasida yuzaga chiqadigan fikr, tasavvur va tushuncha hamda ilg'or qarashlarning shakllanishi va rivojlanishining o'ziga xosligini takomillashtirish mexanizmlari.

Pedagogik innovatsion faoliyatning mohiyati haqida to'xtalib o'taylik. Ko'pincha uni sanoatdagi yoki boshqaruvdagi yangiliklar joriy qilishga o'xshatishadi. Shu bilan birgalikda pedagogik hamjamiyat ongida boshqa tushuncha mustahkamlanib bormoqda.

Pedagogik innovatsion faoliyat – prinsipial ravishda pedagogik jamoa tomonidan amalga oshiriluvchi maqsadga yo'naltirilgan harakatlar, ijod va turmush tarzidir. Bu

pedagoglarning tashabbusi (yangi g‘oyalari, loyihalari, rejalari, aniq bir harakatlari va boshqalar) bo‘lib, bu tashabbus tashabbuskorlarning o‘zlariga va ana shu tashabbusda ishtirok etishni istaganlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bu joriy vaziyatga jonli ta’sir etuvchi, jarayonning barcha ishtirokchilari, eng avvalo, uning tashabbuskorlari ongi va tushunchalarining o‘zgarib borishini nazarda tutuvchi pedagoglarning ijod va turmush tarzidir.

Hozirgi kunda pedagogik innovatika mukammallahib, kengayib bormoqda. Bunday o‘sish kelgusida talabalarning fiklashi, tafakkuri va innovatsion faoliyatini rivojlanishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Shunday ekan, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim bo‘lajak o‘qituvchi (talaba) pedagogik faoliyatidagi innovatsion komponentni shakllantirish talabidan kelib chiqib qurilmog‘i lozim.

Fikrlash tushunchasi, uning mazmuni va mohiyati, shaxsni har tomonlama shakllantirish va rivojlantirishdagi o‘rni va roli haqidagi ilg‘or qarashlar yuqorida nomlari keltirib o‘tilgan qator olimlar tomonidan atroficha o‘rganilib, uning ahamiyati, zarurati va o‘ziga xosliklarini yoritib berishga harakat qilingan. Mazkur muammo yuzasidan bir guruh psixologlar, pedagoglar, filosoflar o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, o‘zlarining fikr-mulohazalarini ilgari surganlar.

Shunday qilib, “innovatsion fikrlash tushunchasi – avval yechimi bo‘lmagan masalalarning yangi, original yechimlarini o‘ylab topishga, izlanishga, imkon topishga amaliy yordam beruvchi va ijodkorlik faoliyatini o‘z ichiga olgan, mustaqil fikr yuritishga yo‘naltirilgan faoliyat jarayonidir” desak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Innovatsion fikr, nafaqat yangi ijodiy mahsulotni yaratish, balki, uni amaliyotga joriy etishda samarali fikrlashni va uni rivojlantirishni ham nazarda tutadi. O‘z oldiga ma’lum bir maqsadni qo‘ygan va unga erishish yo‘llarini tanlagan har bir talaba ma’lum darajada o‘z dunyoqarashiga, fikrlashi, tafakkuri, tasavvuri va tushunchalariga, shuningdek, shaxsiy yoki ijtimoiy manfaatlarni ifodalovchi ehtiyojlarga asoslanadi, bunda uning irodaviy harakatlarining vositalari sifatida uning maqsadi, xohishi, istagi bilan birga, uning manfaatlari va ehtiyoji maydonga chiqadi hamda eng asosiysi mazkur vositalar uning innovatsion fikrlash ko‘nimasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etuvchi mexanizmlar sifatida maydonga chiqadi.

Talabalarda innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan faoliyatining butun tizimini birmuncha to‘liq va yaxlit ifoda etuvchi funksional belgi qabul qilinadi, natijada ko‘nikma va malakalarning quyidagi guruhlari asosida innovatsion fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi.

1. Gnostik ko‘nikmalar – metodologik va psixologik-pedagogik bilimlarni egallash sohasidagi ko‘nikmalar bo‘lib, keyinchalik ular innovatsion pedagogik masalalarni yechish uchun safarbar etuvchi tayyorlikka keltiriladi.

2. Konstruktiv ko‘nikmalar – o‘quv axborotlarining mazmunini saralash, innovatsion g‘oyalarni amalga oshirishda o‘quv-tarbiya jarayonini rejalashtirish sohasidagi ko‘nikmalar.

3. Tashkiliy ko‘nikmalar – talabalarning innovatsion g‘oyalarini o‘quv-tarbiya jarayoniga joriy qilish, o‘quvchilarning va o‘zining xususiy faoliyatini tashkil etishda amalga oshirish sohasidagi ko‘nikmalar, o‘quv-dasturiy hujjatlashtirish, ishbilarmonlik yozishmalarini yuritish ko‘nikmalari va boshqalar.

4. Kommunikativ ko‘nikmalar – innovatsion masalalarni yechish maqsadida pedagogik jamoalar bilan mashg‘ulot paytida innovatsion tajribani joriy qilish borasida o‘quvchilar bilan yangiliklarni ishlab chiqishda muassasa ma’muriyati bilan pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq va ishchanlik ruhiyatidagi o‘zaro munosabatlarini o‘rnatish sohasidagi ko‘nikmalar.

5. Innovatsion ko‘nikmalar – pedagogik yangiliklarni rejalashtirish, ishlab chiqish va o‘quv-tarbiya jarayonida bevosita amalga oshirish, pedagogik sinovlar o‘tkazish, innovatsion tajribalarni yangi holatlarga ko‘chirish sohasidagi ko‘nikmalar.

Talabalarni innovatsion fikrlash ko‘nikmasini takomillashtirish asoslari innovatsion g‘oyalar, loyiham, texnologiyalarni joriy qilishda va o‘z shaxsini rivojlantirishda namoyon bo‘ladi. Bu faoliyat imkoniyatlari o‘zida quyidagilarni jamlaydi:

- talabalarni yangilikni qo‘llashga tayyorgarligi;
- talabalarning pedagogik yangilikni o‘zlashtira olish malakasi;
- talabalarning novatorlik qobiliyatining rivojlanganlik darjasи;
- talabalarda kommunikativ va kognitiv qobiliyatlarning rivojlanganligi;
- talabalarning kreativligi va akmeologik yondashuvi.

Bizning fikrimizcha talabalarni innovatsion fikrlash ko‘nikmasini takomillashtirishga yo‘naltirilgan faoliyatga tayyorlashda bir qator to‘siqlar mavjud bo‘lib bularga quyidagilarni kiritish mumkin; birinchidan talabaning o‘zi ko‘nikkan faoliyat chegarasidan tashqariga chiqishi hamda qiyinchilik va to‘siqlarga duch kelishi, ikkinchidan bunday to‘siqlarga sabab ularda ijodkorlikning yetarli shakllanmaganligi; uchunchidan innovatsion fikrlash ko‘nikmani yetarli egallanmaganligi; to‘rtinchidan; innovatsion fikrlashning sustligi va yangi va noma’lum narsalar har doim odamlarda cho‘chish va xavfsirashni keltirib chiqarishiga psixologik yondashilmaganligi deb qaralishi mumkin. Bunday muammolarni yechimi talabalar o‘z ustida muntazzam ishlashi, fanning o‘qitish metodikasini o‘zlashtirgan bo‘lishi, psixologik va pedagogik tayyorgarlikni yetarliligi. Ushbu jarayonda talabalarning faol ishtirok etishi va bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashi ularda innovatsion, mantiqiy, tanqidiy, aqliy, pedagogik, produktiv va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Talabalarni innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishga tayyorlash tizimi quyidagi xususiyatlar bilan belgilanadi:

- talabalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirish ular bilan individual va jamoaviy ishslashni samarali tashkil etilishi;
- talabalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishda tizimli yondashuvdan ijobiy foydalanish;
- talabalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishda samaradorlikka erishish imkoniyatlari va shart-sharoitlariga amaliy yondashish.

Talabalarni innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishga oid nazariy qarashlar va ularning tahlili quyidagi qarama-qarshiliklarni aniqlagan:

- ✓ talabalarni innovatsion fikrlash ko'nikmasini takomillashtirishning yangi sifatiga bo'lgan talabini yetarlicha ta'minlashga to'g'ri yo'naltirilmaganligi, bu borada qarama-qarshiliklarning mavjudligi;
- ✓ talabalarining innovatsion fikrlash ko'nikmasini takomillashtirishning samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan mazkur sohadagi ilmiy-uslubiy ishlanmalarning yetarli emasligi, mavjudlari o'rtaqidagi qarama-qarshiliklar.
- ✓ talabalarining innovatsion fikrlash ko'nikmasini takomillashtirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayoniga innovatsion yondashuvning tizimlashtirilmaganligi.

Xulosa qilganda, innovatsion fikrlash innovatsion faoliyatning yuqori bosqichi bo'lib, bunda talabalar bir-birlarini fikrlarini tinglashi, qo'llab-quvvatlashi, kiritilayotgan yangilikning ta'lif muassasasida o'z o'rnini topishiga ishonch bilan qarashi, qiyinchiliklarga duch kelganda ruhan tushkunlikka tushmasdan, o'z xatolarini ko'ra bilishi va ularni tuzatishga harakat qilishi, anglash, izlanish, faollik talab etiladi. O'z-o'zini harakatlantirish, tarbiyalab borish, o'z ustida tinmay ishslashga harakat qilish innovatsion fikrlashning asosiy sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kholikova, D. (2020). INTELLECTUAL ACTIVITY OF CREATIVE THINKING VERBAL TEST "UNUSUAL USE". PEDAGOGICAL SCIENCES, 22.
2. Kholikova, D. M. (2021). DEVELOPMENT OF INNOVATIVE THINKING SKILLS IN.
3. Xolikova, D. M. (2022). TALABALARDA INNOVATSION FIKRLASH KO'NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI. Scientific progress, 3(4), 174-180.
4. Шарипова Д., Холикова Д. Основные направления работы по технологиям оздоровления в начальной школе. "Халк та'лими" ильмий-журнал "Методика". 2017. № 6.
5. SHaripova, D., & Xolikova, D. Osnovnie napravleniya raboti po texnologii zdorovesberejeniya v nachalnoy shkole."Xalq ta'limi" ilmiy-metodik jurnali. 2017. № 6.
6. Maksutovna, K. D. (2022). DEVELOPMENT OF INNOVATIVE THINKING

SKILLS AMONG STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS.
ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW
ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(10), 55-59.

7. Maksutovna, K. D. (2022). Development of innovative thinking skills among students of higher educational institutions. ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(10), 55-59.
8. Khalikova, D. M. (2016). QUESTION OF EDUCATION IN IMPROVING THE PERSONALITY. Ученый XXI века, (3-1), 34-37.
9. Холикова, Д. М. (2016). QUESTION OF EDUCATION IN IMPROVING THE PERSONALITY. Ученый XXI века, (3-1 (16)), 34-37.
10. Xolikova, D. M. (2022). TALABALARDA INNOVATSION FIKRLASH KO'NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI. Scientific progress, 3(4), 174-180.
11. Bahodirovna, A. M., & Maxsitovna, X. D. (2023). MIQDOR TUSHUNCHASINING BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARIGA O 'RGATISH USULLARI. PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION, 2(5).
12. XOLIKOVA, D., & SOLIYEVA, M. (2023). TALABALARDA INNOVATSION FIKRLASH KO'NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISH. Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 1(5), 80-85.
13. Холикова Дилобархан Макситовна. (2023). РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ. Эфиопский международный журнал междисциплинарных исследований, 10(12), 134-137. Извлечено из <http://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/666>
14. Maxsitovna, X. D. (2023). SINFDAN TASHQARI O'QISH DARSLARIDA O'QISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH. MODERN SCIENCE, 2181, 3906.
15. Xolikova, D. (2023). INCREASING LEARNING EFFICIENCY IN CLASSROOM STUDY LESSONS. Modern Science and Research, 2(5), 750-760.
16. Холикова, Д. (2023). ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ НА УЧЕБНЫХ УРОКАХ В КЛАССЕ. Современная наука и исследования, 2(5), 750-760.
17. Kholikova Dilobarkhan Makhsitovna. (2023). DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING OF STUDENTS. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(12), 134–137. Retrieved from <http://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/666>
18. Maxsitovna, X. D. (2023). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA TIL O'QITISHGA KOMMUNIKATIV YONDASHUV. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMUY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(19), 825-829.